

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>I.A.Qo'chqarov</b>	
Hayot faoliyati xavfsizligi kursida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlash yo'nalishida amaliyot organlarini o'qitish metodikasi .....	533
<b>L.E.Bobomurodova</b>	
Talabalar mustaqil ta'limini shakllantirishning muhim pedagogik omillari.....	537
<b>U.M.Nomozov, Z.A.Jabbarov, B.T.Jobborov</b>	
Neft uglevodorodlari bilan ifloslangan sho'rlangan tuproqlarning rekultivatsiyadan so'ng biologik xossalari o'zgarishi .....	541
<b>B.B. Nizomova</b>	
Maktab 7-sinf biologiya darsligidagi "Bakteriyalar, Protistalar, Zamburug'lar" mavzusida tabiiy fanlar integratsiyasini ta'limdagi ahamiyati .....	546
<b>Z.M.Mamatov</b>	
Quyov terisining fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'rganish.....	550
<b>N.A.Quldashev, M.Rahmatova</b>	
Ayrim nutq ko'rinishlarida agnonim so'zlarning qo'llanishi .....	553
<b>D.J.Nizomitdinov</b>	
Germaniyalik sharqshunos va islomshunos Tilman Nagel Amir Temur shaxsi haqida.....	555
<b>I.I.Rustamova</b>	
Dramada sahnada ko'rinmaydigan qahramon va uning badiiy talqini .....	558
<b>D.R.Ruzmatova, Sh.A.Begimkulova</b>	
Afg'on-amerika diaspora adabiyotida diniy va dunyoviy ta'lim: ayol, oila va jamiyat .....	562

## AYRIM NUTQ KO'RINISHLARIDA AGNONIM SO'ZLARNING QO'LLANISHI

## УПОТРЕБЛЕНИЕ СЛОВ-АГНОНИМОВ В НЕКОТОРЫХ РЕЧЕВЫХ ФОРМАХ

## THE USE OF AGNONYM WORDS IN SOME SPEECH FORM

Quldashv Nizomidin Axmadaliyevich<sup>1</sup><sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti, tilshunoslik kafedrası mudiri (Phd)Rahmatova Madinaxon<sup>2</sup><sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti, O'zbek tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada insonlarning so'zlashuv nutqida uchraydigan ba'zi birliklar haqida ma'lumotlar, tilning qadrlanishi va agnonimlar haqida ba'zi tushunchalar o'rin olgan. Muallif shu kungacha kam e'tibor qaratilgan ba'zi holatlarga to'xtalib o'tgan. Tadqiqotda agnonim so'zlarning qo'llanilishiga misollar keltirilgan. Izohli lug'atlar, badiiy asarlar va jonli so'zlashuv tili misollar uchun manba bo'lib xizmat qilgan.*

**Аннотация**

*Эта статья содержит информацию о некоторых единицах, встречающихся в речах людей, о том, как ценить язык, и некоторые сведения об агнонимам. По сей день автор прервал некоторые случаи, на которые не обращали особого внимания. В исследовании приведены примеры употребления агнонимских слов. Источниками для примеров послужили комментаторские словари, артефакты, язык живой речи.*

**Abstract**

*This article contains information about some of the units found in people's speeches, the appreciation of the language, and some insights into agnonims. To this day, the author has interrupted some cases of little attention. The study provides examples of the use of agnonim words. Commentary dictionaries, artifacts, and the language of live speech have served as sources for examples.*

**Kalit so'zlar:** agnonimlar, argo, leksik birliklar, so'zlashuv nutqi, noma'lum va tushunarsiz so'zlar.

**Ключевые слова:** агнонимы, сленг, лексические термины, разговорная речь, неизвестные и непонятные слова).

**Key words:** (agnonyms, slangs, lexical terms, colloquial speech, unknown and unintelligible words).

**KIRISH**

“Bizning yoshlar albatta boshqa tillarni bilish uchun sa'y harakat qilsinlar, lekin avval o'z ona tilini ko'zlariga to'tiyo qilib, ehtiromlar ko'rsatsinlar. Zero, o'z tiliga sadoqat – bu vataniy ish”. Is'hoqxon Ibratning ushbu so'zlari, albatta, o'rinlidir. Lekin hozirda insonlar o'z nutqini atrofdagilarga boshqacha ko'rsatish uchun o'zlariga ham tushunarsiz bo'lgan ba'zi iboralarni qo'llashmoqda, chet el so'zlaridan, agnonimlar va argolardan, chet tilidagi so'zlardan (bakalavr, tiktok, heshteg, zato (зато), obshiy (общий) kabi) juda ko'plab foydalanishmoqda. Bu esa tilimizga bildirilgan hurmatning bir ko'rinishidir.

Til tizimida so'zlar atash ma'nosiga ega va ega bo'lmagan so'zlarga bo'linadi. Biz tahlil qilayotgan so'zlar aynan atash ma'nosiga ega bo'lmagan so'zlar sifatida agnonim nomi ostida birlashadi. Agnonimlar insonlar nutqida tez-tez qo'llanadigan, lekin aniq bir mazmun kasb etmaydigan so'zlardir. Ya'ni, insonlar bu kabi so'zlarni nutqda juda ko'p qo'llaydi. Masalan: “Ijtimoiy tarmoqlarda O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 34 yilligi hamda 21-oktabr O'zbek tili bayrami bilan ona tilim – faxrim **heshtegi** ostida **chellenj** davom ettirilmoqda.”<sup>24</sup> Ushbu ijtimoiy tarmoqdan olingan xabardagi “heshteg”, “chellenj” so'zlari agnonim so'zlar hisoblanadi. Agnonimlar til egasining tasavvur chegaralari doirasida uning butun bir hayoliy istaklarini yuzaga chiqaruvchi, mavjud nutqiy imkoniyatlarni namoyon etuvchi vosita sanaladi. Agnonimlar nutqiy hosila sifatida lisoniy birliklar sistemasidan tubdan farq qiladi va so'zlovchi yoxud badiiy asar muallifining tafakkur, tasavvur olamini idrok etish iqtidoridan kelib chiqqan holda turli ifoda shakllarida namoyon bo'lib boraveradi. Biz agnonimlar deya ta'riflayotgan shakllar esa tushuncha bilan bog'liq holda hech

<sup>24</sup> Farg'ona viloyat hokimligi telegram kanalidan

qanday ma'no anglatmaydi.<sup>25</sup> Argolar ma'lum bir guruh insonlarining o'ziga xos tili hisoblanadi. Biz o'z nutqimizni sof va tabiiy bo'lishini xohlasak, iloji boricha agnonimlar va argolardan foydalanmasligimiz kerak. Chunki ular salbiy hodisa hisoblanadi. Ular soflikka zid bo'lib, soflik nutqning eng muhim sifatidir. "qorong'i, ya'ni noaniq so'zlarni so'zlarni ishlatish tilning rang-barang, yorqin va ifodali leksik gazlamasidagi dog'lar kabi yoqimsizdir. Ular matnlarni buzadi, fikrlashni qiyinlashtiradi, gapirayotganlar va o'qiyotganlarning soxta g'oyalar va xulosalar chiqarishlariga olib keladi".<sup>26</sup>

Badiiy asarlarda esa agnonimlar alohida estetik vazifani bajaradi. Agnonimlarning badiiy asarlarda ma'lum bir uslubda maqsad bilan ishlatilishini agnomaziya deb atash mumkin. Agnomaziyaning vazifasiga asar qahramonlarining dunyoqarashini aks ettirish va ularning nutqini individuallashtirish kabilarni kiritish mumkin. Quyidagi parchadagi agnomomik birliklar, asosan, tibbiyot bo'yicha mutaxassisning nutqida (domlarning ma'ruzasida) qo'llangan bo'lib, illustrativ xarakter kasb etadi. O'quvchi uchun bu leksemalarning anglanishi u qadar muhim emas: *"Birinchi qatorga o'tirib, leksiya daftarimni ochib qo'ydim. Sadir Fuzaylovich uyoqdan-buyoqqa vazmin borib kelib, leksiyasini davom ettirdi. – Uxlatadigan moddalar neyronlardagi **qo'zq'alish seanslarini** susaytiradi, **retikulyar formatsiyaning** bosh miya po'stlog'iga ko'rsatadigan, **stimullashtiruvchi** ta'sirini pasaytiradi va shu tariqa uyquini vujudga keltiradi.*

*Sekin burilib qaradim. Muzaffar ham mendan ko'z uzmay o'tirgan ekan. Soqoli o'sib ketibdi. Sochi taralmagan, ko'ylagi g'ijim... Hech qachon bunaqa yurmas edi. Bir gap bo'lgan.*

*-Uxlatuvchi preparatlar orasida eng ta'sirli dorilar, - Sadir Fuzaylovich ovozini balandroq ko'tardi, - **barbituralar** hisoblanadi. Bular orasida hozirgi kunda eng kuchlisi **fenobarbital** hisoblanadi. Bu preparat uxlatuvchi, shuningdek, talvasani, **epilepsiya** – tutqanoqni tinchlantiruvchi dori sifatida poroshok yoki tabletkada 0.1-0.2 grammdan ichiladi..." (O'tkir Hoshimov. "Ikki eshik orasi").<sup>27</sup>*

Bugungi kunda tilga e'tibor ancha kuchaydi, nutqda qo'pol so'zlardan foydalanish deyarli uchramay qo'ydi. O'zbek tili bo'yicha kadrlarni yetishtirish ham ancha ko'paydi. O'zbek tilimizning bunday yuksalishlarini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning til bayramidagi tabrik nutqida ham bir qadar ko'rishimiz mumkin: "Mamlakatimizda o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash hajmi hamda ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Hozirgi kunda jami 33 ta oligohda ushbu mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida 7 ming nafardan ziyod fan nomzodlari va doktorlari, professor-o'qituvchilar o'zbek tili va adabiyotidan dars bermoqda. Agar 1992-2012-yillarda, ya'ni 20 yil mobaynida bu ixtisoslik bo'yicha 730 ta ilmiy ish himoya qilingan bo'lsa, so'nggi 10 yilda bu raqam 792 tani tashkil etdi".

### XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, tilimizni doim ardoqlab, e'tibor berishimiz kerak. Bu xususan Abdulla Oripovning bir gaplari juda o'rinlidir: "Til bu – odamlarga tabiat tomonidan berilgan, insonlarning ming yillar mobaynida o'zaro munosabatlarida sayqallanib kelgan shunday bir javohirki, bu javohirni sohib yuborish emas, ko'z qorachig'iday asrashimiz kerak."

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qo'ldashev N. A. "Lingvoekologiya: til va nutq sofligining nazariy masalalari" doktorlik dissertatsiyasi. 2020.
2. Yo'ldashev M. " Agnonimlar va ularning badiiy nutqda qo'llanilishi" O'zbek tili va adabiyoti, 2007. 3-son.
3. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2019-yil. 7-son. 6-bet.
4. <https://president.uz/uz/lists/view/6784>

<sup>25</sup> "Til va adabiyot ta'limi" 2019-yil, 7-son, 6-bet

<sup>26</sup> Qo'ldashev N. A. "Lingvoekologiya: til va nutq sofligining nazariy masalalari" doktorlik dissertatsiyasi. 2020.

<sup>27</sup> Yo'ldashev M. " Agnonimlar va ularning badiiy nutqda qo'llanilishi" O'zbek tili va adabiyoti, 2007. 3-son.